

TA'LIM JARAYONI PEDAGOGIK JARAYONNING AJRALMAS QISMI

Mirkomilov Baxtiyor - J.D.P.U., professor
O'ralova Nargiza - J.D.P.U., Tarix magistranti

Annotasiya: Pedagogika kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, shu narsa ko'rinadiki, dastlab uning doirasida differentsiallashtiruv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo'lsa, keyinchalik ochiqchasiga ta'lim va tarbiya qarama-qarshi qo'yila boshladi: o'qituvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Ushbu maqola pedagog hamda uning mas'uliyati, ta'limdan ajralmas bir bo'lgi ekanligi tushuntirib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagog, ta'lim tizimi, komponentlar, meyoriy hujjatlar, ta'lim, tarbiya.

KIRISH:

XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda obektiv nuqtai-nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F. Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta'limda vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa maqsad bor, vosita etishmaydi. Nemis pedagogi A. Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lim printsiplari bor ekan, hamisha tarbiya printsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha". Pedagogik jarayonning yagonaligi g'oyasi K.D Ushinskiy g'oyalarida chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma'muriy, o'quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi¹.

ASOSIY QISM:

Jahon ta'lim tizimida talabalarga yangicha zamonaviy dunyo standartlari asosida bilim berish, ta'limning barcha sohalarida ularning ijodiy faoliyatini ta'minlash, talaba yoshlarning yangi ilmiy-amaliy g'oyalarni yarata oladigan va har qanday vaziyatda faoliyatdagi muammoning yechimini topa oladigan ijodkorlik xususiyatiga ega shaxsni tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. PISA xalqaro tadqiqotlarida 2021-yildan boshlab ta'lim sifatini baholovchi mezonlarning asosiy komponenti bo'lgan "ijodiy tafakkur" alohida ajratib ko'rsatildi. Bu borada malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida ijodiy fikrlash va nostandart tafakkur tarzi bilan bog'liq jihatlarni belgilab berilganligi mavzuni tadqiq etish zaruratini yanada oshiradi hamda shaxsda ijodiy tafakkurni rivojlantirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasini bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri etib alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni taqazo etadi².

¹To'laganova G "TA'LIM JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA" 2022-yil

² Абдурахмонов Ш.С. Интеграция образования, науки и производства как методологическое основание подготовки учителей профессионального образования // Образование: традиции и инновации. Материалы V

Ta'lim jarayonining mohiyati shundan iboratki, bilish jarayonining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Ta'lim jarayoni quyidagi bilishlar o'rtasida rivojlanadi: individual va iltimoiy-tarixiy bilishlar. Ta'lim jarayoni individual rivojlantirish ishi oldiga yoshlarni davr taraqqiyoti darajasidagi bilimlar bilan qurollantirish vazifasini qo'yadi. Chunki individual rivojlanish ijtimoiy tarixiy rivojlanishdan ortda ikki rivojlanish ta'limni o'zaro bog'lab turadi. Ta'limning maqsadi hayotning jismoniy, aqliy, hissiy, ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdir. Ta'lim umrbod davom etadigan jarayon bo'lib, u oiladan boshlab umr oxirigacha davom etadi. Keng ma'noda ta'lim jarayonida o'qituvchi do'st, faylasuf va yo'riqchi sifatida ishtirok etadi.³

Pedagogik tizimni o'zgartirish, uni qayta tashkil etish va moslashtirish qaysidir qism yoki qismlarning o'zaro ta'sir ko'rsatish yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Tizimlilik, yaxlitlilik – bunday shakldagi tizimni komponentlar, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar va bo'g'inlarning o'zaro birikishini tashkil etadi va uning funksional vazifalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta'minlaydi. Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi omillardan biri – maqsad bo'lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi. Pedagogik tizim uni tashkil etuvchi komponentlar majmuini ifodalab, uning o'zgarishi ichki ziddiyatlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik tizim ochiq bo'lganligi sababli tashqi muhit bilan ko'pgina kommunikatsiyalar orqali bog'liq bo'lib, tashqi muhit va mavjud munosabatlar pedagogik tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Axborotlarning pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o'zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.⁴

Didaktikada dars jarayonida yangi mavzuni tez va sifatli o'zlashtirish taqozo etiladi. Zero, o'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili qisqa va mazmunli dars o'tishga borib taqaladigan didaktik hodisadir. Fanlararo aloqadorlik asosida har bir dars jarayonida bir necha darslarning o'xshash mavzularidan misollar keltirib, foydalanish ko'p vaqtni talab qiladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv predmetidan dars beradigan o'qituvchi bir soatlik dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuni nihoyatda vaqtni tejagan holda, tez va mazmunli tarzda o'quvchilar ongiga yetkaza olishi, ular xotirasida o'tilgan mavzuning asosiy komponentlarini saqlanib qolinishiga erishishi lozim. Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo'lib, u o'quvchilarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog'liqdir. Shu nuqtai-nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'rganilishida ushbu

международной научно-практической конференции, Чешская Республика. Прага. 2014. - С.7-8.

³ AYER A.J. "The Problem of Knowledge" 1956

⁴ Turg'unov S.T., Maqsudova L.A, Tojiboyeva H.M, Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. "Pedagogik jarayon-larni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" Toshkent, 2014

tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta - uyg'otuvchi, yo'naltiruvchi, fikr uyg'otuvchi vazifalaridan foydalanadi. Bunda matematik tushunchalarning qo'llanilishi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'rganilgan mavzuni xotirada saqlanishiga imkoniyat yaratadi⁵.

Ayniqsa Maktab Matematikasi Qo'mitasi va Illinoys Universitetining Arifmetika loyihasi ta'limda kashfiyotning ahamiyatini alohida ta'kidlab kelmoqda. Ular talabaning matematikaning muayyan amaliyotining ortida yotgan umumiylikni o'zi kashf etishiga imkon beradigan usullarni ishlab chiqish bilan faol shug'ullanib kelishmoqda. Bu yondashuvni ular "tasdiqlash va isbotlash usuli" bilan taqqoslaydi. Mazkur an'anaviy usulda umumiy tamoyil o'qituvchi tomonidan avval aytiladi, so'ng sinf uni isbotlab chiqishga chaqiriladi.

Mobi Dik romanini o'qiyotgan o'rta maktab o'quvchisi Melvill asari, boshqa narsalar bilan birga, yovuzlik mavzusi va bu "o'ldiruvchi kit"ni quvayotganlarning fojeaviy holati haqida ekanini tushunsa, asarni yanada chuqurroq anglaydi. Agar o'quvchi adabiyotdagi romanlar aslida inson boshidan kechiradigan unchalik ko'p bo'lmagan asosiy fojealar haqida yozilishini ham tushunib etsa, u adabiyotni bundan ham yaxshiroq tushunadi. Bularni mazmuni mohiyatini tushunib yetishida pedagogikaning o'rni katta hisoblanadi. Pedagog o'quvchilarga, bolalarga kitobning asl mazmuni tushuntirib orqali ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishga yordam beradi.

O'quvchilarni kerakli bilimlarni mustaqil o'rganish, ijodiy faoliyatga kirishish, shuningdek, o'qishga nisbatan shaxsiy motivatsiya uyg'otish hamda o'rganilgan nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ta'lim va tarbiya borasida bunday yondashuvlar mamlakatimizda siyosiy islohotlarimizda ham "Ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlarini shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi" zarur deya, belgilanishidan ham bilish mumkin. Ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan boshqa bir qator me'yoriy hujjatlarda ham o'quvchilarni maktab davridan boshlab o'qitish masalasi quyidagicha izohlangan: "Kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish" ga zamin yaratadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya pedagogik jarayonning ajralmas, yaxlit tizimini tashkil etadi. XIX asrdan boshlab ilg'or pedagoglar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib

⁵ Абдукуддусов О. "Интегратив ёндошув - чуқур билим, яхши фазилатларни шакллантириш омили" "Халқ таълими" нашриёти, Тошкент 2000. 32-36-бет.

bo'lasligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro baholash tizimlarida ijodiy fikrlashning asosiy mezon sifatida e'tirof etilishi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zaruratini yanada kuchaytirdi.

XULOSA:

Xulosa shundan iboratki, pedagogik tizimning ochiqligi, fanlararo aloqadorlik, motivatsiyani kuchaytiruvchi yondashuvlar hamda kashfiyotga asoslangan ta'lim usullari o'quvchilarning bilimni chuqur va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'limning hayot bilan uzviy bog'lanishi, nazariy bilimlarning amaliyotda qo'llanishi shaxs kamolotini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Demak, ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosida tashkil etilgan, ijodiy va motivatsion yondashuvlarga tayangan pedagogik jarayon zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. AYER A.J. "The Problem of Knowledge" 1956
2. Gulnoz To'laganova "TA'LIM JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA" 2022-yil
3. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A, Tojiboyeva H.M, Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. "Pedagogik jarayon-larni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" Toshkent, 2014
4. Абдурахмонов Ш.С. Интеграция образования, науки и производства как методологическое основание подготовки учителей профессионального образования // Образование: традиции и инновации. Материалы V международной научно-практической конференции, Чешская Республика. Прага. 2014. - С.7-8.
5. Абдукуддусов О. "Интегратив ёндошув - чуқур билим, яхши фазилатларни шакллантириш омили", "Халқ таълими" нашриёти, Тошкент 2000, 32-36-бет.